

## LOGOPED KIM?

*Mansurjonova Nafisa Abdurahim qizi*

*Farg'ona viloyati bog'dod tumani 8-maktab logoped o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola logopediya fani qanday fan va bu fanning logoped o'qituvchisi kimligi, uning ish faoliyati nimalardan iboratligi, logoped qanday o'quvchilar bilan ishlashi haqida tushuncha berilgan.

**Kalit so'zlar:** logopediya, rotatizm, pararotatizm, TTKB (tovush talaffuzida kamchiligi bo'lgan bolalar).

### KIRISH

Men Mansurjonova Nafisa logoped bo'lib ish boshlaganimga ko'p bo'lmagan bo'lsada, bu sohada tajribam oshib borgan sari logopediya fanining naqadar qiziqarli, rivojlanayotgan va bolalar uchun naqadar kerakli soha ekanligini tushundim. Men bugungi maqolamning sarlavhasini Logoped kim? deb be'jizga nomlamadim. Negaki: nafaqat maktabda, ko'chada ayniqsa o'quvchilarning ota-onalari orasida menga eng ko'p beriladigan savol bo'lgan. Qaysi fandan dars berasiz? Deb so'rashganida Logopediya fanidan dars beraman logopedman deb javob bersam, kim u logoped? Nima ish qiladi? deb so'rashadi. Chunki bu sohani ko'pchilik hali yaxshi bilmaydi, lekin meni ko'nglimni og'ritadigan joyi shuki: logoped tili chuchuklar bilan ishlaydimi? internatlarda aqliy zaiflar bilan ishlaysizlarmi? Sizlar nega maktabda ishlaysizlar? maktabda ham tili chuchuklar bormi? degan savollarga har bir logoped duch kelgan meningcha shuning uchun men bugun shu savollarga javob bermoqchiman.

Eng avvalo logoped kimligiga to'xtalishdan oldin logopediya terminiga to'xtalib o'tmoqchiman. Logopediya grekcha so'zdan olingan bo'lib "To'g'ri nutqni tarbiyalash" degan ma'noni bildiradi. Logopediya bu nutq buzilishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır.

Logoped – nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha mutaxassis. Logoped mahsus mashqlar yordamida chiroyli gapirish va tovushlarni aniq talaffuz qilishni o'rgatadi. Logoped bir vaqtning o'zida ham vrach ham pedagog hisoblanadi. U tibbiyot muassasalarida vrach, ta'lim muassasalarida esa pedagog sifatida faoliyat yuritadi. Kimlar logopedga murojat qilishi mumkin?

1. Yosh bolalar. Nutqi sekin rivojlanayotgan, duduqlanadigan, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga qiynaladigan bolalar.

2. Abituriyentlar. Nutqiy malaka ta'lab etiladigan san'at insitutlariga kirishni ko'zlagan yoshlar ham logoped ko'magiga muhtojlik sezadi.

3. Katta yoshlilar. Ishi doimiy muloqotlar bilan bog'liq kasb egalari ham logopedga tez-tez murojat qilib turishadi.

4. Bemorlar. Bosh miyaning jarohatlanishi oqibatida masalan: insultdan so'ng nutqini yo'qotgan bemorlar ham logoped ko'magiga muhtoj bo'ladi.

Logopediya fanining yanada rivojlanishi, logoped o'qituvchilarining esa maktablarga kerakligini, tovush talaffuzida kamchiligi bo'lgan (T.T.K.B.) bolalarning kamchiligi maktablarda boshlang'ich sinfdaligidayoq bartaraf etilishi uchun muhtaram prezidentimizning farmonlariga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va Aholini Ijtimoiy Muhofaza Qilish Vazirligining qarori bilan:

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shahobchalarini ochish to'g'risidagi farmoni 2015 yil 26-oktiyabrda Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazildi. Bu degani endilikda maktabdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar maktabning o'zida logoped ko'magini olishlari mumkun. Bu esa ota-onalarga katta yordamdir. Chunki logoped izlab, bir qancha pul to'lab hususiy logopedlarga murojat qilmaydi, ota-onalarning vaqti ham, puli ham tejaladi.

Meni bu maqolani yozishimga bir voqea turtki bo'ldi. TTKB guruhimda bir o'quvchi qizim bor edi. Uning talaffuzidagi kamchiligi R tovushining yo'qligi yani Rotatizm edi. O'qituvchisi bilan gaplashganimda R harfini ayta olmagan uchun uyalib gapirganida, kitob o'qiganida, r harfi qatnashgan so'z kelib qolsa o'sha so'zni gapirmay, o'qimay ketadigan bo'libdi. Shu darajada kam gap ediki savollarizga imo ishoralar bilan yoki kulib javob berardi. Shu o'quvchim bilan ko'proq shug'illanib, yaxshilab tanishib, ko'ngliga yo'l topganimda bildimki u faqat eng yaqin insonlari oldida gapirishi, r harfini ayta olmagan uchun sinfdoshlari kulishidan qo'rqib gapirmaslikni afzal ko'rar ekan. Assalomu alaykum, kirsam mumkunmi? Kabi oddiy so'zlarni menga aytishi uchun 1oy vaqt kerak bo'ldi. Dastlab hamma bolalar xonaga salom berib kirsam u indamay joyiga kelib o'tiradi va menga tabassum qilib qo'yadi. Bu o'quvchim bilan juda qiziqish bilan ish olib borayotgandim. R harfini chiqarish bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni olib, r harfi chiqishiga oz qolganida birdan dadasi logopedik mashg'ulotlarga kirgazmay qo'ydi. Unday qilmang, qizingiz yaqinda r tovushini chiqarib oladi, hali kirganiga endi 1oy bo'ldi desam: meni qizimning tili chuchuk emas, qachondir r harfini ham aytadi. Endi odamlarni buni qizi yoshligida logopedga kirgan, tilida kamchiligi borda degan gaplari menga kerak emas dedi. U desam ham ko'nmadi, bu desam ham ko'nmadi. Nega insonlar bunday insonlarning gap so'zi hatto farzandlarimizning sog'lig'idan ham muhimmi? Qachon odamlarning gapi degan tushuncha bizning xalqimizning ongidan chiqib ketar ekan. O'sha gapiradigan odamlar shu o'quvchimga biron yordam berolarmikin? Meni oldimga ota-onalar 7-sinf, 11-sinf hatto maktabni bitirgan bolalarini ham ko'p olib kelishadi.

Yaqinda turmushga chiqish arafasida turgan qizni onasi olib keldi. Maktabda o'qib yurganida e'tibor bermadim r harfini y harfiga alishtiradi (pararotatizm). Endi birovni uyiga borsa y deb tursa nima bo'ladi deyapti. Mana vaqtida u ham odamlar nima deydi deganmi yoki chekka qishloqda yashagani uchun logoped mutahassisini topolmaganmi yoki shunchaki be'etibor bo'lganmi yillar o'tib endi davolatishga harakat qilyapti. Meni o'sha o'quvchim ham kelajakda shunday bo'lmasligiga dadasi kafolat beraolarmikin? Lekin unda yo'qotilgan yillarni ortga qaytarib bo'lmaydiku. Tovush talaffuzidagi kamchiliklari bartaraf etilib yani sog'lomlashgan o'quvchilarimni logopediya shahobchasidan kuzatyotganimda juda ko'p ota-onalar kelib minnatdorchilik bildirib ketishadi, farzandlarining ayta olmagan tovushlarini aniq va ravon aytayotganligidan juda hursand bo'lishadi. Shunday paytlarda men o'z kasbim bilan ozgina bo'lsa ham bolajonlarga nafim tekkanidan quvonaman. Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek hamma ham bunday emas. Ularga farzandi o'z vaqtida davolanib, logoped ko'magini olib nutqi aniq va ravon bo'lishidan ko'ra odamlarning gap so'zlari muhim. Nima bo'lgan taqdirda ham men ota-onalarga, ustozlarga bolalarning nutqiga e'tiborli bo'lishlarini, biron kamchilik sezishsa logopedga murojat etishlarini iltimos qilardim. Toki bizning kelajak avlodimizning nutqi hamisha aniq va ravon bo'lsin.

### XULOSA

Biz logopedlar orasida bir gap bor "To'g'ri gapirsangina to'g'ri yoza olasan" bir o'ylab ko'ringa bu so'zlar naqadar to'g'ri aytilgan negaki og'zaki va yozma nutq naqadar bir biriga bog'liq. Ular ikkisi bir birini hamisha to'ldirib turadi. Insonda qachonki to'g'ri nutq shakillansagina to'g'ri yozuv ko'nikmasi ham o'shanda shakillanadi. Kasallikni davolashdan ko'ra uni oldini olgan yaxshi deyishadi shuning har bir bolaga yoshligidan boshlab to'g'ri gapiryotganiga, to'g'ri yozayotganiga ota-onasi hamda pedagog o'qituvchilar e'tiborli bo'lishi lozim.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Y. Ayupova "Logopeddiya" 10.08.2017y
2. Usmonxo'jayev Abdugarim "Tabobat olami" 2012yil
3. <https://www.lex.uz/>